

0'zbekistonning qator universitetlari Italiyaning Turin Politeknika universiteti bilan hamkorlik a'loqalarini rivojlantirmoqda

Joriy yilning 23 may kuni, O'zbekistonning bir qator universitet rektorlari Italiyaning Turin Politeknika universiteti bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish maqsadida Toshkent shahridagi Turin politeknika universitetiga tashrif buyurdi.

Uchrashuv davomida, Toshkent shahridagi Turin Politeknika universiteti rektori Jamshid Inoyatxodjaev, Farg'ona Politeknika instituti rektori O'ktam Salomov, Toshkent arxitektura-qurilish instituti rektori Ercan Kahya, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori Baxtiyor Mahkamov, Samarqand Davlat arxitektura-qurilish instituti rektori Chidem Janbay Turkiylmazlar Italiyaning Turin politeknika universiteti rektori Guido Sarakko bilan o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida muzokaralar olib bordilar.







Muzokaralar natijasida Italiyaning Turin politexnika universiteti rektori Guido Sarakko, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti rektori Jamshid Inoyatxodjayeov hamda Farg'ona politexnika instituti rektori O'ktam Salomovlar tomonidan o'zaro qo'shma ta'lim dasturi tashkil etish bo'yicha uch tomonlama shartnoma imzolandi.



Shuningdek Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Farg'ona Politexnika instituti Italiyaning Turin politexnika universiteti bilan ikki tomonlama hamkorlik shartnomasini ham imzoladi.



Uchrashuv doirasida Italiyaning Turin Politexnika universiteti bilan birgalikda PhD dasturlarini joriy qilish, professor-o'qituvchilarni o'qitish metodologiyasini o'rgatish, muhandis

xodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish maqsadida malaka oshirish (Kompetensiya) markazini ochish, shuningdek tashrif buyurgan universitetlarda “Sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari” bakalavr yo’nalishini rivojlantirish hamda “2+2” qo’shma ta’lim dasturlarini joriy qilishga kelishib olindi.

